

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYANING  
BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDAGI  
AHAMIYATI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Abdurahmonova Dildora Mamasaid qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgantarbiyaviy faoliyatning mazmuni, maqsadi va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi o'rni yoritilgan. Maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiya bolani aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat jihatdan kamol topishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada tarbiyachining roli, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ham tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiya, bola shaxsi, maktabga tayyorgarlik, psixologik rivojlanish, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, pedagogik yondashuv.

**Аннотация:** В статье раскрываются содержание и цели воспитательной работы в дошкольных образовательных учреждениях, а также её роль в подготовке детей к школьному обучению. Подчёркивается значение воспитания в формировании личности ребёнка, его интеллектуальном, нравственном, эстетическом и физическом развитии. Рассматривается роль воспитателя и эффективность применения современных педагогических технологий в процессе подготовки детей к школе.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитание, личность ребёнка, готовность к школе, психологическое развитие, умственное воспитание, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, физическое воспитание, педагогический подход.

***Annotation:** This article highlights the content and objectives of educational work in preschool institutions and its importance in preparing children for primary school. It emphasizes the role of upbringing in developing a child's personality, intellectual, moral, aesthetic, and physical growth. The article also discusses the educator's role and the effectiveness of modern pedagogical technologies in enhancing school readiness.*

***Keywords:** preschool education, upbringing, child development, school readiness, psychological development, intellectual education, moral education, aesthetic education, physical education, pedagogical approach.*

## **Kirish**

Maktabgacha ta'lim - bu bolalarning rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, u bolalarni nafaqat maktab ta'limiga, balki butun hayotga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tarbiya ishlari bolalarning jismoniy, aqliy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyaning bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi o'рни va ahamiyati, shuningdek, samarali tayyorlashning asosiy yo'nalishlari tahsil etiladi. Taniqli psixolog Lev Vygotskiyning ta'kidlashicha, "Maktabgacha yosh - bu bolaning psixik rivojlanishidagi eng muhim va noyob davr bo'lib, unda bolaning kelajakdagi barcha qobiliyatlari asosi qoplanadi". Aynan shu davrda bola atrof-muhit bilan faol o'zaro munosabatda bo'ladi, dunyo haqidagi tasavvurlari shakllanadi, asosiy ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Professor Nodira Azizxodjaeva o'z asarlarida maktabgacha ta'limni "inson shaxsining poydevori" deb ta'riflab, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tarbiya ishlari bolalarning jismoniy, aqliy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va maktabdagi o'qish muvaffaqiyatining kalitidir" degan fikrni bildiradi. Shu davrda bola dunyoni anglay boshlaydi, nutqi, tafakkuri, xulq-atvori va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Lev Vygotskiy psixologik nazariyasiga ko'ra, bolaning yuqori psixik funksiyalari, jumladan

tafakkur va nutq, ijtimoiy-madaniy muhitda rivojlanadi va aynan maktabgacha davrda shakllanishning asosiy bosqichini o'tadi Vygotsky, Maria Montessori esa bola o'z bilimini faol o'rganish orqali egallashi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan tarbiya bola shaxsini maktab hayotiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil qarorida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va bolalarni maktabga puxta tayyorlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, "Ilk va maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da sifatli tarbiya orqali bolalarni maktabga puxta tayyorlash belgilangan.

### **Asosiy qism**

#### **Maktabgacha ta'limda tarbiyaning mazmuni va vazifalari**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya bolaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat jihatdan har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan uzluksiz jarayondir. U nafaqat bilim berish, balki bola ongida to'g'ri xulq-atvor, ijtimoiy faollik, mehnatsevarlik, odob-axloq me'yorlarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya o'yin faoliyatiga asoslanadi, chunki o'yin bolaning tabiiy ehtiyoji bo'lib, o'yin orqali u o'rganadi, fikrlaydi va ijtimoiylashadi. Tarbiyachi turli o'yinlar orqali bolada tartib, diqqat, mas'uliyat va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

#### **Maktabgacha ta'limning bolalar rivojlanishidagi o'rni**

Maktabgacha yosh - bu bolalarning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim davr. Ushbu davrda bola atrof-muhit bilan faol o'zaro munosabatda bo'ladi, dunyo

haqidagi tasavvurlari shakllanadi, asosiy ko'nikma va malakalarni egallaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarga nafaqat bilim beradi, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga, o'z fikrlarini ifodalashga o'rgatadi. Bu esa maktabda o'qish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Tarbiyaning maktab ta'limiga tayyorlashdagi ahamiyati**

Tarbiya - bu maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi asosiy vazifa bo'lib, u bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashni nazarda tutadi. Tarbiya orqali bolalarda quyidagi fazilatlar shakllantiriladi:

- **Intellektual rivojlanish:** Bilim olishga qiziqish, kuzatish qobiliyati, mantiqiy fikrlash, xotirani rivojlantirish.
- **Nutqiy rivojlanish:** So'z boyligini oshirish, grammatik to'g'ri gapirish, fikrni mantiqiy ifodalash.
- **Ijtimoiy moslashuv:** Boshqa bolalar va kattalar bilan munosabatlar o'rnatish, jamoaviy ishlash qobiliyati, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.
- **Emotsional rivojlanish:** O'z his-tuyg'ularini boshqarish, stressli vaziyatlarda o'zini tutish, irodaviy fazilatlar.

**Jismoniy rivojlanish:** Kichik va yirik motorikaning rivojlanishi, sog'lom turmush tarziga o'rgatish.

### **Maktabgacha ta'limda tarbiyaning asosiy yo'nalishlari**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

**Aqliy tarbiya:** Bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, tabiat, jamiyat, texnika hodisalari haqida tasavvur hosil qilish. Ushbu yo'nalishda bolalarda kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kognitiv jarayonlari rivojlanadi.

**Ma'naviy-axloqiy tarbiya:** Bolalarda insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar, mehnatsevarlik kabi sifatlarni shakllantirish. Ushbu yo'nalish bolalarni jamiyatda to'g'ri munosabatlar o'rnatishga tayyorlaydi.

**Estetik tarbiya:** Bolalarda go'zallikni his qilish va yaratish qobiliyatini rivojlantirish. Rang-tasvir, musiqa, raqs, teatr kabi faoliyat turlari orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

**Jismoniy tarbiya:** Bolalarning sog'lom va baquvvat bo'lishiga, harakatlarining to'g'ri va aniq bajarilishiga yordam beradi. Jismoniy mashqlar, sport o'yinlari, suzish kabi faoliyatlar bolalarning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Psixologik tayyorgarlik**

Bola maktabga borishdan oldin diqqatni jamlash, xotira, mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va nutq orqali fikr bildirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu tarbiya jarayonining psixologik tayyorgarlik bosqichida amalga oshiriladi.

O'yin, suhbat, ertak tinglash, hikoya tuzish va rasm chizish mashg'ulotlari orqali bola tafakkurini rivojlantiradi, idrok etish va fikrini ifoda etish ko'nikmalarini egallaydi.

### **Axloqiy va ma'naviy tarbiya**

Axloqiy tarbiya bolada odob, vijdon, halollik, samimiyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantiradi. Ma'naviy tarbiya esa milliy g'urur, vatanparvarlik va insonparvarlikni rivojlantiradi.

### **Aqliy tarbiya**

Bolalarda kuzatish, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Tarbiyachi "Ilk qadam" dasturi orqali bilishga qiziqish uyg'otadi va maktabga tayyorlashni osonlashtiradi.

### **Jismoniy tarbiya**

Harakatli o'yinlar, ertalabki gimnastika va sport mashqlari bolaning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi. Tarbiyachi bolalarni sog'lom ovqatlanish va gigiyena qoidalariga o'rgatadi. Jismoniy tarbiya bolaning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi. Harakatli o'yinlar, ertalabki gimnastika, sport mashqlari orqali bola chaqqon, faol, bardam bo'lib ulg'ayadi.

Tarbiyachilar bolalarga sog'lom ovqatlanish, gigiyena qoidalari, toza havo va uyquning ahamiyatini tushuntirish orqali sog'lom turmush tarzi asoslarini singdiradilar.

### **Estetik va mehnat tarbiyasi**

Rasm chizish, qo'shiq aytish, raqs va qo'g'irchoq teatrlar orqali bolalarda estetik did shakllanadi. Mehnat tarbiyasi esa tartiblilik, mustaqillik va mas'uliyatni o'rgatadi.

### **Tarbiyachining roli**

Tarbiyachi bolaning ilk yo'l ko'rsatuvchisi bo'lib, bilim, madaniyat, sabr, e'tibor va o'ziga ishonchni o'rgatadi. Zamonaviy metodlar (interaktiv o'yinlar, rolli mashg'ulotlar, loyiha ishlari) bolaning faoliyatini oshiradi.

### **O'yin faoliyatining maktabga tayyorlashdagi o'rni**

O'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin orqali bolalar nafaqat dam oladi, balki hayotiy ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'yin jarayonida bolalarda mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, o'yin bolalarni maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan diqqatni jamlash, ko'rsatmalarga bo'ysunish, vazifalarni bajarish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

### **Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limning uzviyligi**

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tarbiya ishlari boshlang'ich ta'limning muvaffaqiyatli o'tishiga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlangan bolalarni olgach, ularning bilim darajasi, ko'nikma va malakalari yuqori ekanligini ta'kidlaydilar. Shuning uchun maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasida doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorgarlikni baholash;**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayoni bolalarning bilim, ko'nikma va

malakalarini aniqlash, shuningdek, ularning rivojlanish darajasini belgilash imkonini beradi. Baholash natijalariga asosan bolalarning zaif tomonlari aniqlandi va ularni bartaraf etish uchun individual dasturlar ishlab chiqiladi. Baholash tizimi bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlashga yordam beradi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlash-tirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi. Maktabgacha davrda inson shaxsini shakllantirishda juda kata ahamiyatga ega. Agar shaxsni har tomonlama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi. 7 yosh bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A.Kameniskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan. Y.A. Kamenskiy o'zining "Onalar maktabi" kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi;

1. Bolalarda maktabga borganda o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.
2. Bolaraga maktabgacha ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyati turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

MTT bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmunini qiziq bo'lgan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Bola asosan, o'z xohishi bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Maktabda esa kunining birinchi qismini tartibli o'qitish egallaydi,

bundan tashqari kunning ikkinchi qismida ham ma'lum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak.

### **Aqliy tarbiya va bilimga qiziqish**

Aqliy tarbiya bolalarda kuzatish, tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tarbiyachi "Ilk qadam" dasturidagi mashg'ulotlar orqali bolalarda bilishga qiziqish uyg'otadi.

Bu jarayonda matematik tushunchalar, tabiat hodisalari, predmetlar o'rtasidagi bog'liqliklarni anglashga o'rgatiladi. Maktabda bu bilimlar o'quv faoliyatining boshlang'ich bosqichini yengillashtiradi.

### **Xulosa**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tarbiya ishlari bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tarbiya orqali bolalarda nafaqat bilim, balki maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaga alohida e'tibor berish, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Buning natijasida bolalar maktab ta'limiga yaxshi tayyorlangan holda, yorqin kelajak sari muvaffaqiyatli yo'l oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya bolani maktab hayotiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiya orqali bola aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat jihatdan shakllanadi. To'g'ri tarbiya kelajakda bilimli, barkamol va mas'uliyatli shaxsni voyaga yetkazish kafolati hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya bolani maktab hayotiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiya jarayoni orqali bola aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat jihatdan shakllanadi.

To'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya — bu kelajakda mustaqil fikrlaydigan, bilimli, vatanparvar va barkamol avlodni voyaga yetkazishning kafolatidir. Shu sababli har bir tarbiyachi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashib, har bir bolaning qalbiga mehr bilan kirishi lozim.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Ilk va maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi." — Toshkent, 2019.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. — Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2020.
3. Shodmonov G'.Sh., Xodjayeva M.Q. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Yunusova M. Bolalar psixologiyasi va tarbiyasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. Komilova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik asoslari. Toshkent, 2017.
6. Bekmurodova I. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar maktabgacha ta'limda. — Toshkent, 2020.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Harvard University Press, 1978.
8. Montessori M. The Absorbent Mind. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1967